

# TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN RIVOJLANISHIGA HISSA

## QO'SHGAN ALLOMALARNING AHAMIYATI

*Norov Odiljon Murodulloevich*

*Osiyo xalqaro universiteti.*

*Pedagogika va psixologiya*

*yo 'nalishi magistranti.*

**Annotatsiya.** Temuriylar davri O'rta Osiyo tarixida ilm-fan, madaniyat va san'atning yuksak bosqichga ko'tarilgan davri sifatida ajralib turadi. Bu davrda ilm-fanning deyarli barcha sohalarida yirik allomalar yetishib chiqdi. Ularning ilmiy merosi nafaqat o'z zamonasida, balki undan keyingi asrlar davomida ham jahon ilm-fan taraqqiyotiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqolada Temuriylar davrida yashab ijod qilgan mashhur olimlarning faoliyati, ularning ilmiy maktablari va fan sohalariga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, bu allomalarning hozirgi davr uchun dolzarbli va ularning merosidan zamonaviy ta'limda foydalanish istiqbollari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Temuriylar davri, ilm-fan, allomalar, ilmiy meros, madaniyat, tarix, ta'lim, ilmiy maktablar.

### KIRISH

Temuriylar sulolasi hukmronligi davri (XIV asrning oxiri – XV asr) O'rta Osiyo tarixida beqiyos madaniy va ilmiy yuksalish davri bo'lib, bu davrda ilm-fan rivojlanishiga katta e'tibor qaratildi. Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari, xususan Ulug'bek kabi hukmdorlar tomonidan ilmlarni qo'llab-quvvatlash, olimlarni himoya qilish va ilmiy markazlar tashkil etish siyosati natijasida bu hududda ilmiy muhit shakllandi. Bu davrda yetishib chiqqan allomalar – matematiklar, astronomlar, tabiblar, tarixchilar va adiblar – o'z asarlari orqali nafaqat Sharqda, balki butun dunyo ilm-fan tarixida chuqur iz qoldirishdi [1].

### ASOSIY QISM

Temuriylar davridagi ilm-fan yuksalishining eng muhim omillaridan biri bu davr hukmdorlarining ilmgaga bo'lgan ehtiromi va rag'bati bo'ldi. Sohibqiron Amir Temur o'zining harbiy-siyosiy muvaffaqiyatlari bilan bir qatorda, madaniyat va ilm rivoji uchun ham asos solgan edi. U Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarda me'moriy va madaniy inshootlar bilan bir qatorda ilmiy maktablar, kutubxonalar, madrasa va masjidlar bunyod ettirdi. Aynan shu muhitda yirik allomalar yetishib chiqdi.

Temuriylar davrining eng yorqin yulduzi bu albatta, Mirzo Ulug'bekdir. U nafaqat hukmdor, balki astronomiya va matematika sohalarida dunyo miqyosidagi olim bo'lgan. Ulug'bek Samarqandda rasadxona va madrasani tashkil etib, bu yerda

Sharafiddin Ali Yazdiy, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy kabi allomalarini yig‘di. Ulug‘bekning “Ziji jadidi Kuragoniy” nomli astronomik jadvali o‘sha davr uchun nihoyatda aniq hisoblangan va Yevropa olimlari tomonidan ham yuksak baholangan. Bu asar dunyo astronomiyasi tarixida fundamental ahamiyatga ega.

Shuningdek, davrning yana bir yirik vakili – Ali Qushchidir. U Ulug‘bek rasadxonasida ilmiy ishlar olib borgan va keyinchalik Usmonli imperiyasiga ko‘chib, Istanbulda ilmiy faoliyatni davom ettirgan. Uning matematik va astronomik asarlari turli madrasalarda darslik sifatida foydalanilgan [2].

Temuriylar davrida faqat tabiiy fanlar emas, balki tibbiyot, falsafa, tarix, adabiyot va islom ilmlari ham ravnaq topdi. Ibn Sino (Garchi u Temuriylardan avval yashagan bo‘lsa-da, uning ta’siri bu davrda kuchli edi), Husayn Boyqaro saroyidagi Jomiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar, tibbiyotda Bahouddin Naqshband ta’limotlari ham Temuriylar davrining ilmiy muhitiga katta ta’sir o‘tkazdi. Jomiy – falsafa, fiqh, lug‘atshunoslik, adabiyot, tasavvuf va tarixda chuqr bilimga ega bo‘lgan mutafakkir bo‘lib, uning ko‘plab asarlari madrasalarda o‘qitilgan. Alisher Navoiy esa nafaqat adabiyot, balki madaniyatshunoslik va davlat boshqaruvi haqida ham chuqr fikrlar bildirgan alloma sifatida e’tirof etiladi.

Temuriylar davridagi allomalar ilmni faqatgina nazariy bilim sifatida emas, balki jamiyatni ma’naviy va axloqiy jihatdan yuksaltiruvchi kuch deb bilganlar. Ularning ilmiy faoliyati yuksak axloqiy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan edi. Bu jihat ayniqsa bugungi kundagi ta’lim tizimi uchun juda dolzarb bo‘lib, zamonaviy ta’lim muassasalari Temuriy allomalarini merosini o‘rganish, ularni yosh avlodga yetkazish orqali, nafaqat bilim berish, balki tarbiya berish vazifasini ham bajarishi lozim [3].

Temuriylar davrida ilm-fan rivojlanishining muhim jihatlaridan biri – ilmiy an’analar va avlodlar davomiyligining ta’minlangani bo‘ldi. Ushbu davrda o‘z faoliyatini olib borgan olimlar nafaqat o‘z zamonasida yuksak ilmiy natijalarga erishgan, balki o‘zlaridan keyingi avlodlar uchun ilmiy metodika, fikrlash uslubi va izlanish madaniyatini shakllantirib berishgan. Masalan, G‘iyosiddin Koshiy tomonidan ishlab chiqilgan matematik uslublar keyinchalik Osiyo va Yevropa matematikasiga ta’sir ko‘rsatgan. U hisoblash aniqligi va raqamli yondashuvlar orqali ko‘plab yechimini topish mushkul bo‘lgan masalalarni hal qilgan. Bu esa matematik tafakkurning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Uning asarlaridagi metodik yondashuvlar bugungi zamonaviy ta’lim tizimida ham o‘rganishga arzигуллик vosita hisoblanadi.

Temuriylar davridagi ilmiy taraqqiyotning yana bir muhim jihat – ilm bilan amaliyotning o‘zaro uyg‘unligidir. Bu davr olimlari nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilishga alohida e’tibor berishgan. Masalan, Ulug‘bek rasadxonasi faoliyati faqatgina osmon jismlarini kuzatish bilan cheklanmagan, balki yulduzlarning joylashuvi asosida taqvimlar tuzilgan, navigatsiya ishlariga asos bo‘lgan. Shuningdek, tabobat sohasida ham amaliy ishlarga katta urg‘u berilgan: davolash uslublari, dorivor o‘simliklar

haqidagi tadqiqotlar, fiziologik kuzatuvlar orqali real hayotda qo'llaniladigan tibbiy bilimlar ishlab chiqilgan [4].

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Temuriylar davri O'rta Osiyoning ilmiy-madaniy tarixida oltin sahifa bo'lib, bu davrda yetishib chiqqan allomalar bugungi zamonaviy ilm-fan asoslarining shakllanishiga muhim hissa qo'shganlar. Ularning ilmiy faoliyati, metodik yondashuvlari, ma'naviy-axloqiy qarashlari hozirgi ta'lim tizimi uchun beba/o o'rnak bo'lishi kerak. Temuriylar davri allomalari nafaqat o'z zamonasining ehtiyojlariga javob bergen, balki umumbashariy ilm-fanning rivojlanishiga yo'l ochgan ijodkorlar bo'lishgan. Ularning merosini chuqur o'rganish, targ'ib qilish va zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirish orqali biz yosh avlod qalbida ilmg'a, ma'rifatga va Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantira olamiz.

## **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Bobojonov, Sh. (2010). Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
2. Qosimov, B. (2008). Ulug'bek va uning ilmiy maktabi. Samarqand: Ilm markazi.
3. Rahimov, A. (2012). Temuriylar madaniy merosi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
4. Raxmonov, S. (2003). O'zbekistonda ilm-fan taraqqiyoti tarixidan. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.